

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAROTOVA MUXIBA ORIFOVNA

**O‘ZBEKONA PARALINGVISTIK VOSITALARNING TIZIMY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Barotova Muxiba Orifovna

O‘zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi.....3

Баротова Мухиба Орифовна

Систематическое изучение узбекских паралингвистических средств.....23

Barotova Muxiba Orifovna

Systematic study of Uzbek paralinguistic tools.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....52

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAROTOVA MUXIBA ORIFOVNA

**O‘ZBEKONA PARALINGVISTIK VOSITALARNING TIZIMY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/Fil2813 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (buxdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo'rayeva Bibish Muxsinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Bahriddinova Bashorat Madiyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Iskandarova Sharifa Madaliyevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 7 » dekabr soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11. Tel: (+99865) 221-29-14, 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (392 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol qo'chasi, 11-uy. Tel.: + 99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 25 » noyabr kuni tarqatildi.

(2023-yil « 25 » noyabr kuni) da 152 -raqamli reestr bayonnomasi



G.N. Murodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
doktori (DSc), professor

N.L. Gaybullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kengashi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

M.K. Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi filologiya fanlari
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi kun tilshunoslik masalalarini antroposentrik yondashuv asosida tadqiq etish ilmiy izlanishlarning tub mohiyatini tashkil etmoqda. Lisoniy birliklarning “til va uning egasi” munosabati asosida o‘rganilishi hamda muloqot egalaridagi milliy-madaniy, genderologik xususiyatlar va shaxsiy belgilarni tadqiq etadigan tilshunoslik yo‘nalishlari rivojlanishi natijasida paralingvistikaga bo‘lgan qiziqish ham ortmoqda. Jahon tilshunosligida paralingvistik vositalar turli tillar kesimida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning milliy va internatsionallik belgilari; nutq egasi, uning milliy mentaliteti, ijtimoiy hayotdagi mavqeyi tizimli ravishda tadqiq etilmagan.

Dunyo tilshunosligida, nutqiy muloqotning noverbal vositalari (imo-ishoralar, mimika va gavda harakatlari, ovozning o‘ziga xos xususiyatlari) tadqiqi tilning turli aspektlarida o‘rganilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy, ta’lim-tarbiya rivoji jabhasida olib borilayotgan ishlar, ayniqsa, xalqimizning madaniy yo‘nalishdagi islohotlari samaradorligini oshirish zarurati tilshunoslik sohasidagi izlanishlarni kuchaytirishga undamoqda. Barchaga ayonki, o‘zbek tilshunosligida “bugungi globallashgan dunyoda tillarning bir-biriga o‘zaro ta’siri, jumladan, chetdan so‘z qabul qilish ko‘lami va sur’ati ortib bormoqda.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda bu jarayonni tubdan tadqiq qilish va mavjud holatni bartaraf etishga qaratilgan izlanishlarni ko‘rish mumkin. Davlatchiligimizning turli jabhalardagi, ayniqsa, turizm sohasidagi jadal rivoji, bu boradagi islohotlarning keng yo‘lga qo‘yilganligi, chet ellik sayyohlarning yurtimizni ko‘rish va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi oshib borayotganligi tilimizni o‘rganishga bo‘lgan talab ortib borishidan dalolatdir. “O‘zbek tilini xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish, uni o‘rganish istagida bo‘lgan chet ellik fuqarolarga ko‘maklashishga mo‘ljallangan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi onlayn platforma tashkil qilish, uning axborot bazasini ta’minlash va muntazam boyitib borish”¹ ham fan va davlat oldidagi dolzarb masalalardandir. Bundan kelib chiqadiki, tilni o‘rganishda “tana tili” bo‘lgan imo-ishoralarni tadqiq qilish ham fan oldidagi dolzarb masalalardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son, 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son va 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son farmonlari;

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6084-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5058351>.

2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi 304-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida paralingvistik vositalar tadqiqi bo‘yicha ahamiyatli izlanishlar o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko‘zga tashlanadi. Jumladan, T.M. Nikolayeva, B.A. Uspenskiy, G.V.Kolshanskiy, I.N.Gorelov, G.E.Kreydlin, A.Garkavets, L.S. Vigotskiy, A.A. Reformatskiy, M.L.Butovskaya, E.G. Kulikova, I.A. Kuznetsov, I.A. Golovanova, I.A. Krim² kabi olimlarning tadqiqotlarida noverbal vositalarning turli aspektlarda yoritilganini ko‘rish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida ham paralingvistik vositalar yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, A.Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirova, Q.Kaxarov, X.Ismoilov, B.Axmedov, M.Qurbanov³ning tadqiqotlarini ko‘rsatish

² Николаева Т. Невербальные средства человеческой коммуникации и их место в преподавании языка // Роль и место страноведения в практике преподавания русского языка как иностранного. – М.: МГУ, 1969. – С. 47-71. Николаева Г.М., Успенский Б.А. Языкознание и паралингвистика // Лингвистические исследования по общей и славянской типологии. – Москва, 1966. – С. 71.; Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974. – 79 с.; Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. – М: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 112 с.; Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2002. – 592 с.; Гарькавец С.А. Тактильно-кинестическая система человека и ее роль в межличностной коммуникации: [учебное пособие по психологии невербального общения]. – Луганск: Ноулидж, 2012. – 184 с.; Выготский Л.С., Лурия А.Р. Этюды по истории поведения. – М.: 1993. – С.93-95.; Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Аспект Пресс, 1996. – С.367.; М.Л. Бутовская. Язык тела: природа и культура (эволюционные и кросс-культурные основы невербальной коммуникации человека). – М.: Научный мир, 2004. – 440 с.; Э.Г. Куликова. Норма в лингвистике и паралингвистике: Дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.19: Ростов н/Д, 2004 – 312 с.; Кузнецов И.А. Национально обусловленные модели фатической диалогической вопросоответной коммуникации в современной русской речи: Дисс. ...канд. фил. наук: 10.02.01: Нижний Новгород – 2020, – 244 с.; Голованова И.А. Репрезентация невербального поведения в русских и немецких художественных текстах: сопоставительный аспект: Дисс. ...канд. фил. наук: 10.02.20: Новосибирск, 2009. – 205 с.; Крым И.А. Жестовые компоненты речевой коммуникации (Теоретико-экспериментальное исследование): Дис. ... канд. филол.наук: 10.02.19 : Кемерово, 2004. – 153 с.

³ Nurmonov A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari. – Andijon, 1980. – 24 b.; Saidxonov M. Noverbal vositalar va o‘zbek tilida ularning ifodalanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 1993. – 26 b.; Saidxonov M. Aloqalaralashuv va imo-ishoralar. – T.: Fan, 2008. – 83 b.; Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dok-ri diss. – T., 2000. – 236 b.; Iskandarova Sh. O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fan. nomz. ... diss. – Samarqand, 1993. – 140 b.; Aripova A. Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari: Filol.fan. nomz. ... diss. – T., 2002. – 186 b.; Akbarova Z. O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2007. – 135 b.; Rasulov Q. O‘zbek muloqot xulqining funktsional xoslanishi: Filol.fan. nomz. ... diss. – T., 2008. – 139 b.; Haydarov A. Konnotativ ma’noning fonetik vositalarda ifodalanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2009. – 136 b.; Toirova G. O‘zbek nutqiy muloqotida sistemaviylik va informativlik: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – T., 2017. – 157 b.; Kaxarov Q. O‘zbek va nemis nutqiy etiketlarining qiyosiy tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2020, – 148 b.;

mumkin. O‘zbek tilshunosligida paralingvistik vositalar tadqiqi A.Nurmonovning “O‘zbek tilining paralingvistik vositalari” nomli risolasida ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, paralingvistik vositalarning monografik planda o‘rganilishi M.Saidxonovning “Noverbal vositalar va o‘zbek tilida ularning ifodalanishi” nomli nomzodlik ishida aks etgan. S.Mo‘minov “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” nomli doktorlik ishida paralingvistik vositalarning genderologik xususiyatlari bo‘yicha fikr yuritib, o‘zbek erkak va ayollar foydalanadigan paralingvistik vositalar haqida qisqacha ma‘lumotlar beradi⁴. Genderologik aspektda paralingvistik vositalarni tadqiq qilish B.Axmedovning “Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi” nomli filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida tahlilga tortilgan bo‘lib, o‘zbek xalqi ayollariga xos bo‘lgan imo-ishoralarni hamda o‘zbek erkaklari ishlatadigan xatti-harakatlarni tahlilga tortgan⁵.

Yuqorida bajarilgan ishlarda o‘zbekona paralingvistik vositalarning mufassal tadqiqi yoritilmagan, muloqotda qo‘llanadigan noverbal birliklar muayyan tizimga solinmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2020-2024-yy.) “Til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbeklar nutqiy muloqotida ishlatiluvchi noverbal vositalarning tizimiy tadqiqini amalga oshirish, jumladan, ularning qamrov doirasi va statistikasini aniqlash, ma‘no xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Asosiy maqsaddan kelib chiqib, ishda quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

o‘zbekona nutqiy muloqotda qo‘llanuvchi paralingvistik vositalarni to‘plash va tizimlashtirish;

o‘zbekona muloqot jarayonida qo‘llanadigan tana a‘zolari nomlari bilan bog‘liq nolisoniy birliklarni yig‘ish va tizimga solish;

mavzuviy guruhlar bo‘yicha ushbu birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini tavsiflash;

paralingvistik vositalarning tizimiy tahlili asosida o‘zbekona muloqotda eng faol va eng kam qo‘llanadigan paralingvizmlar ro‘yxatini aniqlash;

o‘zbekona paralingvistik vositalar bo‘yicha to‘plangan faktik materiallar asosida o‘zbekona kinetik paralingvizmlarning milliy xususiyatlarini batafsil

Ismoilov X.T. Sud lingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari (Jinoyat ishlari bo‘yicha sud majlisi misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2021. – 142 b.; Axmedov B.R. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2021. – 155 b.; Qurbanov M.A. O‘zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2021. – 192 b.

⁴ Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dok-ri diss. – T., 2000. – 236 b.

⁵ Axmedov B.R. Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2021. – 155 b.

o'rganish, shu asosda o'zbek xalqining o'ziga xos ijtimoiy turmush tarzini ko'rsatib beruvchi belgilarini aniqlash va tahlil etishdir.

Tadqiqotning obyekti sifatida hozirgi o'zbek adabiyoti badiiy asarlarida qo'llangan nutqiy muloqotning noverbal (fonatsion, kinetik, pantomimik va proksemik) vositalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbekona paralingvistik vositalarning semantik xususiyatlari va turlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda umumfalsafiy metodlardan kuzatuv, analiz, sintez, tavsiflash; lingvistik metodlardan qiyoslash, lingvomadaniy, pragmatik, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paralingvistik vositalar nafaqat jonli muloqotning, balki shaxsning ruhiy, individual, ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy va madaniy, gender xususiyatlarini o'zida aks ettira oladigan nutq komponenti ekanligi antroposentrik yo'nalishda dalillangan;

kinetik noverbal birliklar orasida mavjud bo'lgan tana a'zolari nomlari asosidagi paralingvizmlarning tizimiy tahlili amalga oshirilib, u orqali bosh va bosh uzvi nomlari ishtirokidagi paralingvizmlar; "bo'yin" leksemasi ishtirokidagi paralingvistik vositalar; tananing o'rta qism a'zolari ishtirokidagi paralingvistik vositalar; tananing pastki qism a'zo nomlari ishtirokidagi paralingvistik vositalar; birdan ortiq a'zo nomlari asosida shakllangan paralingvizmlar statistikasi aniqlangan;

o'zbekona paralingvistik vositalarning sistemaga solinishi asosida jonli muloqot jarayonida sof harakatni ifodalab kelishi, yashirin maqsadni anglatishi, shuningdek, ijobiy va salbiy mazmuni ifodalashga xizmat qilishi hamda bajarilishiga ko'ra bevosita so'zlovchi tomonidan amalga oshirilishi yoki tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir qilinishi, teginishi natijasida yuzaga kelishi mumkinligi isbotlangan;

nasriy asarlardan keltirilgan misollarda nolisoniy interferensiya (xorijiy aksent) hodisasining yuzaga kelishi, muloqot jarayonida noverbal vositalardan: parallel qo'llanadigan imo-ishoralar// tana va uning uzvlari harakati (kinetika)// fonatsiya// ekstralingvistika// gaptika// olfaktika aks etishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paralingvistik vositalar milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi, urf-odatlar, axloqiy xislatlar bilan aloqador bo'lgan nutqiy muloqot bo'lagi ekanligi hamda semantik xususiyatlari ko'rsatib berilgan;

nutqiy muloqotida qo'llanuvchi kinetik noverbal vositalarga alohida e'tibor bergan holda, paralingvizmlar quyidagi guruhlariga ajratilgan: bosh va bosh uzvi nomlari, tananing o'rta qism a'zo nomlari hamda tananing pastki qism a'zo nomlari ishtirokidagi paralingvistik vositalar;

statistik tahlil asosida o'zbekona nutqda eng faol qo'llanuvchi paralingvizmlar bosh, ko'z, qo'l va yelka a'zolari ishtirokida hosil bo'lishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘zbek sotsiolingvistikasida paralingvistik birliklarning tadqiqi nazariy manbalar yordamida atroflicha ochib berilganligi hamda shu asosda ularning o‘ziga xos milliy xususiyatlari badiiy asarlardagi matnlar orqali aniqlanganligi, tana a‘zolari nomlari ishtirok etgan noverbal vositalar boy daliliy materiallarga tayangan holda chuqur tadqiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy natijalaridan kelajakda paralingvistika sohasida olib boriladigan izlanishlarda manba sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, bu sohaga oid nazariy va amaliy ma‘lumotlarning kengayishida tadqiqot natijalari ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Dissertatsiyada keltirilgan xulosa va takliflar shakllanayotgan zamonaviy o‘zbek tilshunosligini ilmiy yangiliklar va nazariyalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, o‘zbekona paralingvistik vositalar asosidagi tahlillar “Lingvokulturologiya”, “Sotsiolingvistika”, “Pragmalingvistika”, “Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati” fanlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda amaliy mavzularni boyitish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu fanlardan noverbal muloqotga oid lug‘atlarni tuzishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

paralingvistik vositalar nafaqat jonli muloqotning, balki shaxsning ruhiy, individual, ijtimoiy, axloqiy, ma‘naviy va madaniy, gender xususiyatlarini o‘zida aks ettira oladigan nutq komponenti ekanligini antroposentrik yo‘nalishda dalillash asosida aniqlangan xulosalardan A-OT-2019-10 raqamli “O‘zbek tilida neyning: me‘yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2019-2022-yy) foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 16-dekabrda 01/4-3494-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbekona paralingvistik vositalarining qayd etilgan xususiyatlari loyihaning mukammallashuviga xizmat qilgan.

kinetik noverbal birliklar orasida mavjud bo‘lgan tana a‘zolari nomlari asosidagi paralingvizmlarning tizimiy tahlili amalga oshirilib, u orqali bosh va bosh uzvi nomlari ishtirokidagi paralingvizmlar; “bo‘yin” leksemasi ishtirokidagi paralingvistik vositalar; tananing o‘rta qism a‘zolari ishtirokidagi paralingvistik vositalar; tananing pastki qism a‘zo nomlari ishtirokidagi paralingvistik vositalar; birdan ortiq a‘zo nomlari asosida shakllangan paralingvizmlar aniqlangan ilmiy xulosalardan FA-A1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” mavzusidagi fundamental loyihada (2013-2015-yy) foydalanilgan (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 30-noyabrda 482/1-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tahlilga tortilgan paralingvistik vositalar haqidagi nazariy bilimlarning yangi ma‘lumotlar bilan boyishiga erishilgan.

o'zbekona paralingvistik vositalarning sistemaga solinishi asosida jonli muloqot jarayonida sof harakatni ifodalab kelishi, yashirin maqsadni anglatishi, shuningdek, ijobiy va salbiy mazmuni ifodalashga xizmat qilishi hamda bajarilishiga ko'ra bevosita so'zlovchi tomonidan amalga oshirilishi yoki tinglovchiga ma'lum darajada ta'sir qilinishi, teginishi natijasida yuzaga kelishi mumkinligi isbotlangan amaliy qarashlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Buxoro" telekanalining "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza" ko'rsatuvlarida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Buxoro" telekanalining 2022-yil 28-noyabrdagi №1-312-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta'minlangan va ular yangi ma'lumotlar bilan takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob "**Paralingvistik vositalarning nazariy tadqiqi**" deb nomlangan bo'lib, ikki fasldan tashkil topgan. "*Paralingvistik vositalar tilshunoslik obyekt sifatida*" faslidan lingvistikaning tarkibiy qismi sifatida XX asrning boshlarida fan sohasiga kirib kelgan paralingvistika Treygerning ilmiy izlanishlari orqali dastlab 1962-yilda Indiana universitetida paralingvistika va kinesika bo'yicha o'tkazilgan konferensiyada e'lon qilingan "Semiotikaga yondashuvlar" sarlavhasi ostida nashr etilganligi; Rossiyada XX asrning o'rtalarida shakllangan paralingvistika yo'nalishiga G.V. Kolshanskiy, T.M. Nikolayeva, B.A.Uspenskiy, G.E.Kreydlin tadqiqotlari asos bo'lganligi; paralingvistikaning ijtimoiy fanlar qatoridagi vazifalari, predmeti, obyekt, usullari, boshqa fanlar bilan aloqasi jarayonida muloqotning ijtimoiy-psixologik muammolari, axborot uzatishning kinematik va taktik ko'rinishlari S.A. Garkavets

tomonidan shakllantirilganligi haqidagi nazariy ma'lumotlar o'rin olgan. I.A. Golovanovning nomzodlik dissertatsiyasida rus va nemis adabiy matnlarida noverbal xatti-harakatlarning ifodalanishi qiyosiy aspektda o'rganilgan bo'lib, badiiy asarlarda insonning noverbal harakatlarini aks ettirishning lingvistik va stilistik muammolari, tana signallarining leksikografik tavsifi muammolari, yozma matnda paralingvistik va kinesik vositalarning aks etish usullarini aniqlash va tahlil qilish, ularni ma'lum bir davr milliy badiiy adabiyoti tilida ifodalash usullari kabi muammolarga yechim topishga uringan⁶.

O'zbek tilshunosligida noverbal vositalar tadqiqi dastlab A.Nurmonov ilmiy qarashlariga asoslanganligi, keyinchalik M.Saidxonov, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, A.Aripovalar tomonidan turli aspektlarda o'rganilganligi xususidagi ma'lumotlar keltirilgan. Z. Akbarova "O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi" nomli nomzodlik ishida murojaatni ifodalashning ekstralingvistik hamda psixolingvistik vositalari haqida so'z yuritib, murojaat shaklini ifodalashning ekstralingvistik vositalarini uchga: 1) jestikulyatsion vositalar; 2) tovush-fonatsion vositalar; 3) rang vositalarga ajratadi⁷. M.A. Qurbanovning "O'zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi" deb nomlangan nomzodlik ishida esa tilga yondosh vositalarning til vositalari bilan birga qo'llanishi, turli tillardagi imo-ishoralarning lingvopragmatik, stilistik va grammatik jihatlari ochib berilgan⁸.

"*Tilshunoslikda paralingvistik vositalar qamrovi masalasi*" nomli ikkinchi faslda bu yo'nalishda amalga oshirilgan paralingvistik vositalar tasnifi masalasi tahlilga tortilgan. "Большая Российская энциклопедия" kitobida ham paralingvistik birliklar T.M. Nikolayeva tomonidan xuddi shunday turlarga bo'linadi: fonatsion, kinetik va grafik belgilar⁹. Shu asosda bir qator rus va jahon tilshunoslarining noverbal muloqot komponentlari xususidagi tasniflari ko'zga tashlanadi. Paralingvistik vositalarga, A.I. Smirnitkiyning fikricha, faqat subyektning jismoniy holati, og'zaki muloqotdagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiluvchi komponentlar kiradi¹⁰. E.M. Vereshchagin paralingvistik vositalarning quyidagi turlarini ajratadi: kommunikativ yuklamaga ega bo'lmagan hamroh nutqi; nutqni almashtirish va axborotni tashish¹¹.

Noverbal vositalar tasnifi bo'yicha ingliz tilshunoslari orasida ham turli nazariyalar mavjud. Xususan, britaniyalik psixolog M. Argayl noverbal muloqot komponentlarini quyidagi guruhlariga ajratadi: 1) tana muloqoti; 2) muloqot maydoni; 3) gavda joylashuvi; 4) tashqi ko'rinish; 5) yuz ifodalari va imo-

⁶ Голованова И.А. Репрезентация невербального поведения в русских и немецких художественных текстах: сопоставительный аспект: Дисс. ...канд. фил. наук: 10.02.20: Новосибирск, 2009. – 205 с.

⁷ Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2007. – 135 b.

⁸ Qurbanov M.A. O'zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2021. – 192 b.

⁹ Большая Российская энциклопедия. – М., 2004. – 1007 с.

¹⁰ Казаченок А. А. Паралингвистические средства в смешанных текстах: Выпускная квалификационная работа магистра: – Екатеринбург, 2020. – 121 с.

¹¹ Казаченок А. А. Паралингвистические средства в смешанных текстах, – Б 11.

ishoralar; 6) nigoh; 7) nutq muddati; 8) ovoz ohangi; 9) nutqdagi xatolik; 10) talaffuz¹².

AQShning noverbal vositalar bo'yicha taniqli tadqiqotchisi M. Knapp quyidagi tasnifni keltirgan: 1. Jismoniy harakatlar. 2. Ko'z harakatlari. 3. Teginish harakatlari. 4. Tevarak-atrof faktorlari¹³.

Amerikalik psixologlar P. Ekman va V. Frizen¹⁴ tasnifiga ko'ra, og'zaki bo'lmagan vositalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Timsollar – tushunchalar (ma'nolar) va mavzularni yetkazishga qodir imo-ishoralar. Ular so'zga ekvivalent bo'la oladi.

2. Illyustratorlar – ifodalangan narsani to'ldiradigan harakatlar.

3. Regulyatorlar – og'zaki ifodalangan holatlarni tartibga solishga, boshqarishga yordam beradigan harakatlar.

4. Affektivlar – holatni ifodalovchi noverbal vositalar.

5. Adapterlar – o'z-o'zini parvarish qilishga qaratilgan harakatlar.

Paralingvistik vositalar qamrovi masalasi bo'yicha o'zbek olimlaridan I. Aliyev, M. Saidxonov, M. Kurbanov, Z. Akbarova, D. Rustamov¹⁵larning tasnifi e'tiborga molik. Xususan, M. Saidxonov tadqiqotida o'zbeklar orasida o'zaro muloqotda ishlatiladigan noverbal vositalarga fikr anglatishda qatnashuvchi barcha kinetik belgi-ishoralar, gavda harakatlari; axborot uzatishda qatnashuvchi yuz o'zgarishlari (mimika, poza); ovozda turli holatlar; tembr, pauza, tovush bo'yog'i va boshqalar kiradi¹⁶. Tadqiqotchining "Noverbal vositalar va ularning o'zbek tilida nomlanishi" dissertatsiyasida tilga yondosh birliklar ularning kommunikativ, somatik xususiyati hamda ishlatilishiga ko'ra tasniflagan¹⁷. Olim noverbal vositalarni ishlatilishiga ko'ra ko'rsatuvchi, ta'kidlovchi, ramziy, tasvirlovchi va emotsional birliklarga ajratgan.

So'nggi yillarda esa M.M. Burxanova, M.M. Gaziyeva¹⁸lar tomonidan ilgari surilgan paralingvistikning nomlanishi va tasnifidagi turli xilliklar, shuningdek, ekstralingvistika, noverbal vosita kabi atamalarning bugungi kunda farqlanishi inobatga olingan holda paralingvistik vositalar tasnifi masalasini aniqlashtirish bo'yicha bildirgan fikrlari hisobga olinadigan bo'lsa, noverbal birliklarning qamrovi fan oldidagi dolzarb vazifalardan biri ekanligi shubhasizdir.

¹² Argyle M. The psychology of interpersonal behavior. 2nd ed. Harmondsworth: Penguin, 1994. – P.43.

¹³ Knapp M.L. The field of nonverbal communication: An overview. New York, 1972. Pp. 52-72.

¹⁴ Экман П. Узнай лжеца по выражению лица [Текст] / П. Экман, У. Фризен. – М., 1975. – 272 с.

¹⁵ Aliyev I.T. Pedagogika va psixologiya. – T., 2012. – 244 b.; Saidxonov M. Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 1993. – 27 b.; Kurbanov M.A. O'zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillarida noverbal muloqotni ifodalovchi vositalar tadqiqi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2021. – B. 23.; Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2007. – 135 b.; Rustamov D.A. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik talqinlari hamda zamonaviy konsepsiyalari: Filologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) diss...avtoref. – Andijon, 2021. – 68 b.


¹⁶ Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – T.: Fan, 2008. – 83 b.

¹⁷ Saidxonov M. Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 1993. – 27 b.

¹⁸ Gaziyeva M.M., Burxanova M.M. Noverbal vositalar tasnifiga oid konseptual strukturalar// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil № 2), 20-25-b. DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.81.53.003>

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Bosh va bosh uzvi nomlari ishtirokidagi paralingvizmlar tahlili**” deb nomlangan va u uch fasldan iborat.

“*Bosh*” leksemasi ishtirokidagi paralingvistik vositalar” deb atalgan dastlabki faslda “bosh” leksemasi ishtirokida hosil bo‘ladigan yigirmadan ortiq o‘zbekona paralingvistik vositalar aniqlanib, ularning ma’noviy xususiyatlari badiiy matnlar yordamida izohlangan. Xususan, “boshini silamoq”, “bosh egmoq”, “bosh chayqamoq”, “bosh silkimoq”, “boshini quyi solmoq”, “bosh ko‘tarmoq” kabi paralingvistik vositalar kontekst talabiga ko‘ra “xafa bo‘lmoq”, “xijolat bo‘lmoq”, “erkalamoq”, “kurashmoq” singari semantik ma’nolarni anglatishga xizmat qiladi.



“2.1-rasm”. Bosh, bosh uzvi a’zolari, bo‘yin ishtirokidagi paralingvistik vositalarning o‘zaro nisbati (raqamlarda).

“Bosh qimirlatmoq” – sekin-asta harakat qila boshlamoq, u yoq-bu yoqqa borib kelib turmoq, tebranmoq. Boshini ohista qimirlatmoq¹⁹.

1) Norozi bo‘lmoq. Anvar Shahidbek bilan maxdumning so‘zlariga qarshi majhul bir aziyatda bosh qimirlatib sufaga qaytdi. Ularning chiqib ketishlarini kutib turg‘andek ichki eshikdan Ra’no ko‘rindi²⁰.

2) xafa bo‘lmoq.

– Inshoollo, shu yigit mirzaboshi bo‘lar, – dedi Safar bo‘zchi suhbatning ruhini

bilmagan holda, – o‘zi ajab zukko yigit, fuqoroparvar bola: bo‘lg‘ani ma’qul, a, labbay, taqsir?

¹⁹A.Hojiyev va b. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – T.: Sharq, 2001. – B. 190.

²⁰Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 31

– Imom yerga qarag‘an holda boshini qimirlatib qo‘ydi. Samad bo‘qoq xo‘mrayib Safar bo‘zchig‘a qaradi:

– E, akillay berasan-da, Safar, – dedi bo‘qoq, – biz nima deyapmiz-ku, sen nima deyapsan²¹.

3) o‘ylab qolmoq.

– Kecha yangamni hech kim yo‘qlab keldimi?

Xolboy bir oz o‘ylanib soqoli ostini chimchiladi.

– Yo‘qlab kelgan ekan, men uyda yo‘q edim. Sultonalining tusi o‘zgarib, boshini qimirlatib qo‘ydi, shipka, ko‘chaga qarandi.

– Agar yangam kelsa, meni aytasiz, men yana qaytib kelaman... Uydan siljimay, meni kutsin, katta bir ish bor, durustmi?²²

Anglatadigan ma‘nosiga ko‘ra bir paralingvistik vosita ikkinchisi bilan sinonimlik hosil qilishi ham ko‘zga tashlanadi. Xususan,

- “xijolat bo‘lmoq” ma‘nosida bosh egmoq – boshini quyi solmoq;

- “uyalmoq” ma‘nosida boshini osiltirmoq – boshini ko‘rpaga burkamoq;

- “chorasiz qolmoq” ma‘nosida boshini changallamoq – boshini ikki qo‘li orasiga olmoq;

- “rohatlanib kulmoq” ma‘nosida boshini oraqaga tashlamoq – bosh tebratmoq;

- “tasdiqlamoq”, “ma‘qullamoq” ma‘nolarida boshini silkitmoq – bosh irg‘atmoq – boshini quyi solmoq – bosh chayqamoq – boshini likillatmoq;

- “erkalatmoq” ma‘nosida boshini silamoq – boshini yuziga bosmoq;

- “afsuslanmoq” ma‘nosida bosh irg‘atmoq – bosh chayqamoq kabi sinonimik qatorlar aniqlandi.

Dissertatsiyada “bosh” leksemasi ishtirokida 24 ta paralingvizm aniqlanib, tahlilga tortilgan: boshini silamoq, bosh egmoq, bosh chayqamoq, bosh silkimoq, boshini quyi solmoq, bosh ko‘tarmoq, boshini yuziga bosmoq, bosh qimirlatmoq, bosh bukmoq, bosh qashinib qolmoq (bosh qashimoq), boshini ko‘rpaga burkamoq, bosh irg‘atmoq (bosh irg‘amoq, boshini ikki yelkasiga irg‘atmoq), boshini biroz orqasiga moyil tutib qaqqaymoq, bosh tebratmoq, bosh urmoq, boshini ikki qo‘li orasiga olmoq (qo‘llari orasiga olmoq), boshini sarak-sarak qilmoq (saraklatmoq), boshini changallamoq, boshini to‘lg‘amoq (silkitmoq, silkimoq), boshni bir yonga (orqaga) tashlamoq, boshni boshga urmoq, boshni g‘oz tutmoq, boshni likillatmoq, boshni osiltirmoq (solintirmoq).

Ikkinchi fasl “*Bosh uzvi nomlari ishtirokidagi paralingvistik vositalar*” deb ataladi. Bosh – tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla²³. Bosh miya va yuz qismlariga bo‘linadi. Miya va yuz qismlari o‘rtasidagi chegara ko‘z usti qirrasi, yonoq suyaklari yoylari orqali o‘tib, tashqi eshituv teshigi

²¹Кодирий А. Мехробдан чаён. – Б. 33.

²²Кодирий А. Мехробдан чаён. – Б. 106.

²³ <https://uz.wiktionary.org/wiki/bosh>

sohasi bo‘ylab so‘rg‘ichsimon o‘simta do‘ngligida tugallanadi²⁴. Bosh uzvlarini, o‘z navbatida, quyidagicha ichki tasniflash maqsadga muvofiq:

1. Boshning yuqori qismi – soch, ensa, quloq, peshona, chakka.
2. Boshning yuz qismi – qosh, ko‘z, qovoq, yuz, yonoq, burun, jag‘, iyak.
3. Boshning og‘iz bo‘shlig‘i qismi – og‘iz, lab, til, tish.

Ishda bosh qismlarining har biri ishtirokidagi o‘zbekona paralingvizmlar badiiy matnlar orqali tahlil qilingan. Xususan, soch orqali sochini silamoq, sochini orqasiga tashlamoq, sochini barmoqlari bilan tarab qo‘ymoq paralingvistik vositalari ifodalangan.

Soch – odamning bosh terisida o‘sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri²⁵.

- 1) sochini silamoq.

Yupatmoq.

– Yig‘lama, ona qizim, yig‘lama. – Dadam Bashor opamning *sochini silar* ekan, ko‘zlari namlandi. (Uning ko‘zida hech qachon yosh ko‘rmagan edim.) – Bormisan, oppoq qizim. Opam dadamning bag‘ridan chiqishi bilanoq oyim quchoqlab oldi²⁶.

- 2) sochini orqasiga tashlamoq.

Nozlanmoq. Lekin o‘sha ondayoq zimdan uning harakatlarini kuzata boshladi. Klara ayollarga xos chiroyli harakat bilan *sochini orqasiga tashlab* yubordi²⁷.

- 3) sochini barmoqlari bilan tarab qo‘ymoq.

O‘ziga bino qo‘ymoq. Xolidiy birovning himoyasiga muhtoj odam emas edi. Sochini barmoqlari bilan tarab qo‘yib, o‘tkir askiya eshitgan odamday miriqib kuldi-da, Anvarning yelkasiga shapatilab qo‘ydi: – G‘ayrat zo‘r bo‘lgan-da, g‘ayrat! – dedi-da, O‘lmasni qo‘ltig‘idan olib, yo‘lida davom etdi²⁸.

Peshona – yuzning qoshdan sochgacha bo‘lgan qismi, manglay²⁹. Bu a‘zo ishtirokida “peshonasini ushlamoq”, “peshonasini tirishtirmoq”, “peshonasiga shapatilamoq”, “peshonasidan o‘pmoq”, “peshonasiga kaftini qo‘ymoq”, “peshonasini silamoq”, “peshonasiga mushtlamoq” paralingvizmlari aniqlandi.

Quloq ishtirokida “qulog‘ini cho‘zmoq”, “qulog‘ini buramoq”, “qulog‘i ding bo‘lmoq”, qulog‘iga aytmoq”, “qulog‘ini qashimoq” paralingvizmlari aniqlanib, ularning ma‘nolari badiiy matnlar asosida ochib berildi.

Chakka ham boshning yuqori qismi a‘zosi bo‘lib, u ishtirokidagi “chakkasini barmog‘i bilan bosmoq”, “chakkasini silamoq”, “chakkasini uqalamoq”, “ko‘rsatkich barmog‘ini chakkasiga tiramoq” paralingvizmlari tahlilga tortilgan.

²⁴ B. M. Salohiddinov, T. M. Muhammadov. Bosh va bo‘yin topografik anatomiyasi (O‘quv adabiyoti). – T., 2003. – 144 b.

²⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati (S). – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 557.

²⁶ Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – T.: Sharq, 1996. – B. 210.

²⁷ Hoshimov O‘. Bahor qaytmaydi, – T.: Sharq, 2005. – B. 65.

²⁸ Malik Tohir. Shaytanat (1-kitob). – T., 2007. – B. 148.

²⁹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati (P). – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 252.

Boshning yuz qismi a'zolari ishtirokidagi paralingvizmlar (qosh, ko'z, qovoq, yuz, yonoq, burun, jag', iyak) orasida ko'z bilan bog'liq birliklar eng keng qo'llanadi.

Shuningdek, dissertatsiyada yuz qismidagi boshqa a'zolar orqali hosil bo'ladigan quyidagi paralingvizmlar tahlilga tortilgan:

2.2-jadval. Boshning yuz qismi a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan paralingvizmlar

QOSH	qoshini kermoq, qoshini ko'tarmoq, qosh qoqmoq, qoshi uchmoq, qosh chimirmoq
KO'Z	ko'zini lo'q qilmoq, ko'zini olib qochmoq, ko'z qismoq, ko'zini suzmoq, ko'zini yerga tikmoq, ko'ziga surtib o'pmoq, ko'zi bilan ishora bermoq, ko'zini ishqalamoq, ko'zi o'ynab turmoq, ko'zini katta ochmoq, ko'z qirini tashlamoq, ko'zlarini pirpiratmoq, ko'z urishtirmoq, ko'zini olalatmoq, ko'zini g'ilaylatib qaramoq, ko'zining paxtasini chiqarmoq, ko'zini chaqchaytirmoq
QOVOQ	qovog'ini uymoq, qovog'ini solmoq, qovog'ini qashlamoq
YUZ	yuzini burishtirmoq, yuziga fотиha tortmoq, yuzini yuziga bosmoq, yuzi uchmoq, yuzi olovdek yonib ketmoq, yuzini o'girmoq, yuzini burmoq, yuzi qizarmoq, yuziga tupurmoq
YONOQ	yonog'i qizarmoq
BURUN	burnini tortmoq, burnini jiyirmoq, burnini qisib qo'ymoq
JAG'	jag'i titramoq
IYAK	iyagini silamoq, iyagi qaltiramoq

Boshning og'iz bo'shlig'i qismi uzvlari ishtirokida hosil bo'lgan paralingvizmlar orasida lab bilan bog'liq birliklar yuqori o'rinni egallashi namoyon bo'ldi. U orqali o'ndan ortiq paralingvizm aniqlanib, ayrimlarining hosil bo'lishida til, tish va hatto bosh harakatining birgalikdagi ishtiroki kuzatiladi: labini tili bilan yalamoq, labini tishlamoq, labini tishlab bosh chayqamoq.

2.3.-jadval. Boshning og'iz bo'shlig'i qismi uzvlari ishtirokidagi paralingvizmlar

OG'IZ	<i>og'izni to'sib gapirmoq, og'zini ochib o'tirmoq</i>
LAB	<i>labini cho'chchaytirmoq, labini pirpiratmoq, labi titramoq, labini burmoq, labini yalamoq, (pastki)labini tishlamoq, labini qimtib qo'ymoq, labini tishlab bosh chayqamoq, labining bir cheti bilan kulmoq, labini tili bilan yalamoq, labi uchmoq</i>
TIL	<i>tilini tishlamoq, tilini chiqarib iljaymoq, tilini chiqarib qo'ymoq</i>
TISH	<i>tishlarni g'ijirlatmoq, tishini -tishiga bosmoq, tishini qayramoq</i>

Uchinchi fasl "Bo'yin" leksemasi ishtirokidagi paralingvistik vositalar" deb nomlangan bo'lib, unda bo'yin leksemasi ishtirokida hosil bo'lgan paralingvizmlar tahlilga tortilgan. Chunonchi, bo'yin leksemasi yordamida shakllangan *bo'yin egmoq, bo'yin solmoq, bo'yin qismoq, bo'yniga osilmoq, bo'yin burmoq, bo'yin tovlamoq, bo'yin to'lg'amoq, bo'ynini cho'zmoq* kabi paralingvizmlar aniqlandi.

1. Bo'yin egmoq (solmoq).

Ta'zim qilmoq. Kumush uyalib, zo'rg'agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib, *bo'yin egdi*³⁰.

Uyalmoq. Bahrom ma'yus bo'yin solib turdi, Baxtiyor bilan Davlat labini artib, bir-biriga qarashdi: – Ayt! – Sen ayt.

– Nima deb aytaman? – Yeganimiz yo'q, deb ayt ...³¹

2. Bo'yniga osilmoq.

Tasalli topmoq. Ichkari kirdim. Tarlon bo'yniga osilib-osilib yig'ladim. To'yib-to'yib yig'ladim...³²

Bo'yin ishtirokidagi deyarli har bir paralingvizm omonimlik xususiyatini ham namoyon qilgan holda, nutqda ko'chma ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “bo'yin egmoq”, “bo'yin qismoq”, paralingvizmlari ko'chma ma'noda “bo'ysunmoq” semasini aks ettirsa, “bo'yin burmoq”, “bo'yin tovlamoq” orqali esa, aksincha, “norozilik bildirmoq” semasi ifodalanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Tananing o'rta va pastki qism a'zo nomlari ishtirokidagi paralingvizmlar tahlili**” deb nomlangan bo'lib, “*Tananing o'rta qism a'zolari ishtirokidagi paralingvistik vositalar*” fasli yelka, qo'l, ko'krak, qorin leksemalari asosida shakllangan paralingvistik vositalar singari ichki guruhlariga ajratilgan. Yelka harakati o'zbekona muloqotning faol birliklaridan ekanligi aniqlanib, undagi paralingvistik vositalar so'zlovchi tomonidan amalga oshirilishi yoki bevosita tinglovchi ustida bajarilishiga ko'ra xarakterlanishi ochib berildi. Xususan, sanab o'tilgan paralingvistik vositalar orasida “*yelkasini uchirmoq*”, “*yelkasi osha qaramoq*”, “*yelkasini qismoq*” harakatlari adresantning o'z ustida bajarilsa, qolgan birliklardan adresat yelkasiga ma'lum ta'sir o'tkazish orqali ichki maqsadni ifodalashda qo'llaniladi. Shunga ko'ra, yelka bilan bog'liq paralingvizmlar ikkiga ajratildi: 1) adresant bilan aloqador paralingvizmlar: yelkasini qismoq, yelkasini uchirmoq, yelkasi osha qaramoq.

Yelkasini qismoq – ikki yelkaning birgalikdagi ko'tarilishi va boshning yelkalar orasiga olinishi.

1) xijolat bo'lmoq.

– O'zizam ja haligidaqa odamsiz-da, oka! – Dalavoy dadamga yuzlanib, baralla ovozda kuldi.

– Qilar ishni qip qo'yib, tag'in odamni so'kib o'tiribsiz, oka. Dadam uzrli qiyofada yelkasini qisdi. – Endi, ukam, jahl chiqqanda, aql ketadi...

– O'ziyam ja, kattasini ag'daribsiz-da, oka! – Dalavoy negadir yana kuldi³³.

2) adresat bilan aloqador paralingvizmlar: *yelkasidan tutmoq* (ikki yelkasidan tutmoq), *yelkasiga qo'l tashlamoq*, *yelkasiga turtmoq* (*yelkasiga turtib qo'ymoq*), *yelkasini silamoq*, *yelkasiga urmoq*, *yelkasidan ushlamoq*, *yelkasiga qoqmoq*, *yelkasiga urib qo'ymoq*, *yelkasiga bosh qo'ymoq*, *yelkasiga mushtlamoq*, *yelkasidan bosmoq*, *yelkasiga kaftini qo'ymoq*, *yelkasiga osilmoq*, *yelkasidan quchmoq*.

³⁰ Qodiriy A. O'tkan kunlar. – T., 2007. – 209 b.

³¹ Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994. – B. 87.

³² <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=1244.90>

³³ Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – T.: Sharq, 1996. – 210 b.

Yelkasidan tutmoq (ikki yelkasidan tutmoq) – qo‘llar yordamida boshqa bir shaxsning yelkalari siqib ushlanib, bir marta silkitiladi.

Do‘q, savolga tutmoq.


– Tirikmi? Asadbek nima uchun bunday deb so‘raganini o‘zi ham bilmadi.

– Xudoga shukur, tirik... – Manzura shunday deb labini tishladi. Shu so‘z Asadbekka jonini qaytarib berdi. Shart o‘rnidan turib xotiniga yaqinlashdi-da, uni ikki yelkasidan tutib, silkidi:

– Unda nimaga yig‘laysan, nimaga vahima qilasan? Manzura boshini egib, yig‘lab yubordi³⁴.

